

ULUSLARARASI
TÜRK DÜNYASI
YUNUS EMRE
SEMPOZYUMU
BİLDİRİ KİTABI

Pamukkale Üniversitesi

Altay Toplulukları Dil ve Kültürleri Uygulama ve Araştırma
Merkezi

(24-27 Mayıs 2021)

EDİTÖRLER

Prof. Dr. Nergis BİRAY

Prof. Dr. Mehmet Vefa NALBANT

Dr. Öğrt. Üyesi Sema EYNEL

Ankara, 2021

DENİZLİ PAMUKKALE ÜNİVERSİTESİ ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI YUNUS EMRE SEMPOZYUMU BİLDİRİ KİTABI

BENGÜ YAYINLARI: 349

GENEL YAYIN YÖNETMENİ
Yakup Ömeroğlu

EDİTÖRLER

Prof. Dr. Nergis Biray
Prof. Dr. Mehmet Vefa Nalbant
Dr. Öğrt. Üyesi Sema Eynel

KAPAK TASARIM
İbrahim Sağlam

KÜTÜPHANE BİLGİ KARTI

Denizli Pamukkale Üniversitesi
Uluslararası Türk Dünyası Yunus Emre Sempozyumu
Türü: Bildiri Kitabı
1.Baskı, 1054 s., 21x29.7 cm
Kasım 2021, Ankara

ISBN: 978-625-7403-43-6

İLETİŞİM

Pamukkale Üniversitesi
Altay Toplulukları Dil ve Kültürleri Uygulama
ve Araştırma Merkezi, DENİZLİ
Genel Ağ Adresi: <https://www.pau.edu.tr/altaydilmer>

BASKI

Sonçağ Yayıncılık Matbaacılık Reklam San. ve Tic. Ltd. Şti.
İstanbul Cad. İstanbul Çarşısı No: 48/48-49, İskitler/ANKARA
Tel: (0312) 341 36 67, Sertifika No: 47865

*Uluslararası Türk Dünyası Yunus Emre Sempozyumu Bildiri Kitabı'nda
yer alan bildiri metinlerinin içeriğinden yazarları sorumludur ve tüm hakları
saklıdır. İzinsiz kopyalanamaz, aktarılamaz, çoğaltılamaz.*



BENGÜ YAYINLARI

Sakarya Mah. Göztepe Sk. No: 5/A
Altındağ/ANKARA
Tel : +90(312) 311 70 52
Faks : +90(312) 311 70 32
e-posta : bilgi@ayb.org.tr

| | |
|--|------------|
| Sayidahmad Vasliy Samarqandiy ijadida Irfoniy G'oyalar Talqini | |
| Badia Muslihiddinovna MUHIDDINOVA | 635 |
| 18-19. Asr O'zbek She'riyatida Irfoniy Mavzularning Badiiy Talqini (Mirhasan Sadoiy va Muhammad G'oziy Devonlari Misolida) | |
| Nazmiya Muslixiddinovna MUXITDINOVA | 646 |
| Kırgız Yunusları; Molla Kılıç, Molla Niyaz ve Nurmolla | |
| Bakit MURZARAİMOV | 657 |
| Türkçede Öfke ve Kızgınlık Bildiren Duygu Fiillerinin Tarihi Türk Lehçeleri ve Anadolu Ağızlarındaki Görünümleri | |
| Bilge Özkan NALBANT, Dursun Sena KIRAÇ | 664 |
| She'riyatning Jon Tomirini Izlab | |
| Musulmon NAMOZ | 673 |
| Suv va Olovga Aloqador Tabiat Hodisalari Talqini | |
| Sh. Sh. NIZOMOVA | 691 |
| Etnolingvistikaning Vujudga Kelishi va Tarakkiyoti | |
| Yulduz NUROVA | 695 |
| O'zbek Folklorida Çoy Talkini | |
| Darmon Saidaxmedovna URAYEVA | 696 |
| Sugnaklar Kimler? Türk mü, Fars mı, Arap mı? | |
| Zhazira OTYZBAY | 697 |
| O'zbek Tilidagi Nutqni Jonlantiruvchi Birliklarning Diskursiv Xususiyatlari Haqida | |
| Azamat Bakhronovich PARDAYEV | 698 |
| O'bek Xalk Ko'shiklarining İjro Kompozitsiyasi | |
| Dilshod RAJABOV | 703 |
| Alisher Navoiy İjodida Tush Motivining Nadiiy Talkini | |
| Ma'rifat Bakoyevna RAJABOVA | 704 |
| O'zbek Bolalar Adabiyotida Folklor Janrlari Stilizatsiyasi Asoslari | |
| Ra'no Z. RAJABOVA | 705 |
| Yunus Emro iloxiyalarida murşid obrazi (Yunus Emro Anjumani) | |
| Zulayho RAHMONOVA | 706 |
| “Codex Cumanicus”un Azərbaycanda öyrənilməsi | |
| Lale RESULOVA | 714 |
| Alişer Navoiy ijodiy merosi va poetik uslubining Türkiyada örganilişii | |
| Roxila Usmanovna RO'ZMONOVA | 722 |
| Alisher Navoiy Badiiy Asarlari (“Farhod va Shirin” Dostoni”da) | |
| Yokub SAİDOV, Dildora SALİMOVA | 732 |
| <i>Yûnus Emre Dîvânî</i> 'na Ait Nûshaların Tarihlendirilmesinde Kullanılabilecek Bazı Morfolojik Ölçütler | |
| Erkan SALAN | 733 |

SUV VA OLOVGA ALOQADOR TABIAT HODISALARI TALQINI

Interpretation Of Natural Phenomenones Related to Water and Fire

Sh.Sh.NIZOMOVA¹

Annotasiya

Ushbu maqolada zamonaviy she'riyatda suv va olovga aloqador tabiat hodisalari uning o'zbek she'riyatida talqini xususida fikr yuritilgan.

Tayanch so'zlar

She'riyat, marosim, oilaviy-maishiy marosim, tasvir, tabiat hodisalari.

Аннотация

В данной статье рассматривается интерпретация природных явлений, связанных с водой и огнем, в современной поэзии и ее интерпретация в узбекской поэзии.

Ключевые слова: поэзия, цермония, семейная цермония, образ, природные явления.

Annotation

This article discusses the interpretation of natural phenomena related to water and fire in modern poetry and its interpretation in Uzbek poetry.

Keywords: poetry, ceremony, family-life ceremony, image, natural phenomena.

Milliy she'riyatimizda suv va olovga aloqador tabiat hodisalaridan suvning obraz va istiora sifatida bir talay o'xshashlik, uyg'unlik, ramzlari yaratilgan. Shulardan biri shabnamdir.

Shabnamning sof qadahi sindi...

Kulimizni sovurdi falak –

Sen mendan ayrilding, men sendan.

O'yin tushar rangin kapalak (Parfi, 2006: 16).

Tunda gul-ko'katlar yuziga qo'ngan namlik, nozik suv rezalari insonga o'zgacha kayfiyat bag'ishlovchi manzaradir. Ayniqsa, uning endi nur taratib chiqib kelayotgan quyosh shu'lasida rangin tovlanib kishiga zavq ulashishi, lekin quyosh chiqa boshlashi bilan oltob nurlari taftiga bardosh berolmay, sekin-asta kuyib-parlanib, ko'zdan yo'qolishi tabiiy holat sanaladi. Shuning uchun shoir shabnamga xos ana shunday kuyish, ayrilish holatini o'z kechinmalari bilan bog'lab, yoridan ayru ko'ngil dardlarini, ishq o'tida kuygan dil izhorlarini metaforik yo'l bilan o'ziga xos ta'sirchanlikda ifoda etmoqda.

Xalqda shabnam va yomg'ir xosiyatli hodisa, obi hayot darajasigacha ko'tarilgan.

Shudring ham suvga aloqador tabiat hodisalaridan biridir. U ko'pincha salqin havo ta'siridan yuzaga chiqadi. Shuning uchun shoirlar yor taftini tuymagan, undan uzoqlikda yashayotgan qalbni "shudring", ya'ni sovuq suv tomchilari zabt etgan joyga o'xshatishadi.

Dalalarda esar shabboda,

Egiladi nozik chuchmoma,

¹ Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi. umidamuzaffarovnaa@gmail.com

Yalpizlarning bargidan shoda –

Shoda shudring jimgina tomar (Parfi, 2006: 12).

Xalqimizning sevimli shoiri Muhammad Yusuf “Rayhon” she’rida suvning birdaniga ikkita: chashma va tomchi (qatra) singari analoglarini ketma-ket qo’llagan:

Gulga tegsa gulxan paydo qiladur,

Suvga tegsa suvni yondirar yuzing.

Sen Arshi a`loda jannatiy chashma,

Men yerda yonaman tomchingga tashna (Yusuf, 112).

O`ziga xos mubolag`a negiziga qurilgan ushbu misralarda suvni-da yondirishga qodir muhabbat alangasi ta`rifi keltirilgan. Go`zal va suyuqli yor Arshi a`lodagi chashmaga tenglashtirilmogda. Unga oshiq xokisor yigit esa yuksaklikdagi ma`shuqasining diydoriga shunchalik mushtoqki, uning bu holati tomchiga zor turgan qaqragan yer suratini eslatadi.

Ikrom Otamurod “Tag`azzul” to`plamiga kiritgan bir she`rida tomchini Vatanning bir bo`lagi bo`lgan fuqaro (shaxs)ga tenglashtirgan:

Hansiragan oftob tig`ida

chaqnagan maysaga tomchi suv bo`lib

chanqog`in bosmasang, behuda,

behuda Vatan deganing to`lib (Otamurod, 2008: 26).

Qadimgi insonlar o`limni bir ko`rinishdan boshqa ko`rinishga evrilish ma`nosida tushunganlar. Ko`pincha ular o`lgan odamning ruhi yomg`ir yo shamol, yo biror o`simlik ko`rinishida yorug` olamga qaytadi deb o`ylashgan (Oraeva, 2004: 120). Shunday mifologik tasavvur-tushunchaga ishora buxorolik taniqli shoir Sadridin Salim Buxoriyning “Onamni sog`inib” she`rida mavjud. Xalq yo`qlovlari mazmuni va ohangida yozilgan ushbu she`rda shunday satrlar bor:

Begonalik qo`yniga sen ham ketdingmi, ona?!

Shamol silar boshimni, yomg`ir to`kar yoshimni,

Shamolu yomg`ir bo`lib tashrif etdingmi, ona? (Oraeva, 2004: 120).

Qadimgi odamlar yomg`ir, qorlarni ko`rib, barcha suv osmonda ekan deb o`ylagan. Shu bilan ularni ilohiylashtirgan. Suvni osmon va ruhlar dunyosi bilan bog`liq deb tassavur qilganlar.

Quyidagi misralarda qor obrazi vositasida bemehr inson qalbiga ishora qilinadi:

Erimagan qor kabi bag`ir.

Buni faqat angladik faqat (Parfi, 2006: 46).

Suvning sovuqda qotishidan muz hosil bo`ladi. Shuning uchun muzni suv analoglaridan biri sifatida qarash mumkin. She`rlarda muz ham obrazlantiriladi:

Uyg`on, ey, malagim, tur o`rningdan tur,

Otashin muzlarda isinaylik, yur,

Otash – olov degani. Muz olovga bardosh berolmaydi va erib ketadi. Shunday ekan, otash va muz bir-biriga zid hodisadir. Biroq badiiy adabiyotda bunday zid hodisalarni yonma-yon keltirish holati kuzatiladi. Bu o'ziga xos badiiy san'at bo'lib, she'riyatda tazod deb emas, balki sifatlash deb yuritiladi. Aslida hayotda “otashin muz” bo'lmaydi. Muz inson tanasini isitmaydi, balki yaxlatib yuboradi. Ana shu sabab “otashin muzlarda isinish” o'ziga xos hodisadir.

Ba'zi xalqlar marhumni kuydirib, kulini idishga solib, suvda oqizib yuboradilar. Ehtimol, shu kabi urf-odatlar ham olov va suvni yonma-yon qo'yib obrazlantirishga asos bo'lgan.

Shunday odamlar borki, qahraton qish bo'lishiga qaramay, qalin muzni yorib, muzday suvda cho'miladilar. Bu yo'l bilan inson tanasidagi dardlar shifo topishi aytiladi. Ehtimol, ana shu hayotiy haqiqat muzni “otashin” sifatlashi orqali ifodalashga asos bo'lgandir.

Yong`inli daryoda quloch otaylik,

Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik (Parfi, 2006: 47).

Muz otashin bo'lmagani kabi daryo ham yong`inli bo'lmaydi. Chunki har qanday yong`in suv bilan o'chadi-qoladi. Shunday ekan, suv manbasi – daryoni “yong`inli” deb sifatlashdan boshqa narsa emas.

Ba'zi xalqlar marhumni kuydirib, kulini idishga solib, suvda oqizib yuboradilar. Ehtimol, shu kabi urf-odatlar ham olov va suvni yonma-yon qo'yib obrazlantirishga asos bo'lgan.

Yomg`ir – insonlarga suv yetkazuvchi tabiat hodisalaridan biri. Qancha ko'p yomg`ir yog`sa, shuncha suv mo'l bo'ladi. Yomg`irning kuchli yoki kuchsiz, ko'p yoki kam darajada yog`ishiga qarab, uning turlari jala, sel, do'l tarzida farqlanadi. Usmon Azimning “Sel” she'rida yog`ingarchilikka oid ana shu timsollarning o'zaro tanosib qilib keltirilganligi kuzatiladi:

Eru osmon ko'l bo'ldi-yo,

Yomg`ir muncha mo'l bo'ldi.

Loyli sellar yo'l bo'ldi-yo,

Oqib o'lmoq o'ng bo'ldi-yo,

Doka ro'mol ho'l bo'ldi.

Doka ro'mol ho'l bo'ldi-yo,

Quritmoqqa quyosh yo'q.

Jala bo'ldi, do'l bo'ldi-yo,

“Ishqdan kechsang – “o'l” bo'ldi-yo,

Chidamoqqa bardosh yo'q (2006: 47).

Jala, sel kabilar ko'pincha bahor faslida tez-tez yuz berib turadi. Jala yoki sel kelishidan oldin osmonni qop-qora quyruq bulut qoplab, kuchli shamol esa boshlaydi. Ayniqsa, bahorning aprel oyida yog`ingarchilik ko'p bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, suv va olov vositasida shoirlar ko'pincha sevgi kechinmalarini, qalb hislarini, oilaviy turmush farovonligini, unda farzand kamolini, hayot yo'lidagi intilishlarini, Vatanga muhabbat tuyg'usini ifoda etgani kuzatiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

- АШИРОВ А. (2007). *Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари*. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 276 б.
- ЖАББОРОВ И. (1994). *Ўзбек халқи этнографияси*. – Т.: Ўқитувчи, 312 б.
- ЖЎРАЕВ М., (2006). *Нарзиқулова М. Миф, фольклор ва адабиёт*. – Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 184 б.
- ЖЎРАЕВ М. (2008). *Ўзбек мавсумий маросим фольклори*.–Т.: Фан, 290 б.
- NIZOMOVA S.S. (2020). *Теория И Практика Современной Науки*, 2020, . Modern Poetry. 7. Sharia's Description Of The Ceremonial Attitude To Water
- NIZOMOVA S.S. (2020). Archive of Conferences.
- ЎРАЕВА Д. (2004). *Ўзбек мотам маросими фольклори*. – Т.: Фан, 120 б.
- ОТАМУРОД Икром (2008). Тағазул. Шеърлар ва дostonлар. – Тошкент: “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, Б.26.
- ПАРФИ Рауф (2006). *Сўнги видо*. – Т.: А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2006. – Б.16.
- SHARIPOVA M. B., NIZOMOVA S. S. (2018). *The Artistic Image Of The Image Of" Water" In The Poem //Ученый Хxi Века. №. 11.*
- ЮСУФ Муҳаммад (?). Биз бахтли бўламиз, 112-бет.